

AMIR TEMUR – FAXRIMIZ, G'URURIMIZ

Davlatmurodov Azizbek

Urganch davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Otayeva Dinora

Urganch davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temur, uning shaxsiyati, yoshligi, davlat boshqaruvi, boshqa davlatlarga yurishi, zafarlari, davlat boshqaruvi haqida atroflicha ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Islom Karimov, Temur Tuzuklari, tashqi siyosat, saltanat boshqaruvi.*

Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, keljakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

(Islom Karimov)

Moziy ulkan dengiz ummoniga o'xshaydi, o'rganganimiz sayin o'rganaveramiz, bilganimiz sayin bilaveramiz... Xalqimiz o'zining saxovatpesha ajdod va avlodlari bilan, ular yaratib, bizga meros qilib qoldirgan olamshumul madaniy qadriyatları bilan qanchalik faxrlansak, shunchalik oz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlaridan birida "...bizning tariximizda Amir Temurday ulug' siymo bor ekan, u qoldirgan meros, pand'u o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q" degan so'zlarida olam-olam ma'no bor.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi, Temuriylar sultanatining asoschisi Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururlı, o'tkir zehn va aql-u idrok egasi bo'lib kamolga yetdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Iymon -e'tiqodli, halol, pok inson bo'lib yetishdi. U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan ozod etish maqsadini qo'ydi va bu buyuk maqsadiga erishdi. Yer yuzida buyuk sultanat sohibi sifatida bir-biriga qardosh bo'lgan yurtlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Moziy sahifalariga nazar tashlasak, buyuk bobomizning millat va el-ulus manfaati uchun chekkan mislsiz zahmat hamda ko'rsatgan shijoatlaridan guvohlik beradi. Insof-u iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Sohibqiron hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga hukmronlik qilgan jahongir

bo'lsa-da, u kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlikdan emas, aksincha, adolatda ekanini angladi. Balki shuning uchun uzugiga "Kuch adolatdadir", qilichiga "Rosti-rusti", ya'ni "to'g'rilik adolatdadir" degan so'zlar zarhal harflar bilan yozilgandir. So'zimiz isbotini yana bir bor oydinlashtirish uchun ulug' yozuvchi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" epopeyasiga yuzlansak:

"Bu davlatda hozir yosh bolaning boshiga bir laganda o'n tilla qo'ysa, u Sultoniyadan Samarcandgacha borsa, bir tilla kamaymaydur". Buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan siymolaridan biri bo'ldi. Uning harbiy salohiyati va bunyodkorlik sohasidagi xizmatlari qanchalik yuksak bo'lsa, tashqi siyosat va diplomatiya borasidagi chora-tadbirlari ham shu qadar yuksak va ulug'vor edi. XV asrda dunyoni larzaga solgan sohibqiron haqida ko'p va ho'b asarlar bitilgan. Jumladan, dostonnavis o'zbek shoiri Xaydar Xorazmiy " Gulshani asror " dostonidagi hikoyalardan birida Temurbekning nihoyatda jasoratli va irodali, o'z maqsadi yo'lida sobit bo'lgani haqida gap boradi.

Bu hikoyani "Temurbek va chumoli" deb nomlash mumkin. Unda tasvirlanishicha, Temurbek hali hokimiyatni egallamasdan burun, dushmanlarini yengib, goh yengilib o'z omadini qidirib yurar ekan, bir jangda qattiq yaralanadi. Jang maydonida yarador holda majolsiz yotar ekan, uni ko'rib, bir guruh dushman yana hujum qiladi, bir qo'l va oyog'ini tamom ishdan chiqaradi. U sudralib, bir tomning soyasiga boradi va biror odam kelib, unga madad berishini kutadi. Lekin ha deganda hech kim kelmaydi. Umidsiz holda u atrofga nazar tashlarkan, huddi uning holatidek chumoliga ko'zi tushadi. U shunday ayanchli holda tomga chiqishga urinar, lekin ozgina balandga ko'tarilganda yerga yiqilib tushar, bundan tushkunlikka tushmay, yana tepaga chiqishga urinar, shu harakatni qayta-qayta takrorlar edi. Amir Temur uni kuzatib xayolga cho'madi. So'ng qarasa, haligi chumoli yo'q. Bir amallab tomga chiqib ketgan edi. Bundan Temurbek o'ziga xulosa chiqaradi: shu chumoliki, urinib o'z maqsadiga erishar ekan, nega men harakat qilmasligim, o'z maqsadimga yetish yo'lida matonat ko'rsatmaslim kerak!- deb, sudralib, emaklab bo'lsa ham odamlar bor joyga yetib boradi. Shu yo'l bilan u o'z jonini qutqarib, kelajakda yetti iqlimga podshih bo'ladi.

Shoir o'z hikoyasini Amir Temur shaxsiyatini, uning adolatli hukmdor sifatida yer yuzida tinchlik o'rnatganini madh etish bilan tugatadi:

Tutti jahon mulkatini yakqalam,
Urdi egdi kishvar ichinda alam.
Tindi aning davrida ro'yi zamin,
Bo'ldi bir el-u bir ulus Rum-u Chin.

Ta'kidlash lozimki, Amir Temur va Temuriylar davri ma'naviyati o'zining salohiyati, tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz madaniyati tarixida alohida o'rinda turadi. Shonli tariximizda buyuk davlatchilikka asos solgan Sohibqiron o'z tuzuklarida: "Tajribamdan ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azm-u qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi" deb yozgan edi. Yurtimizni Chor Rossiyasi egallagan payti ko'plab qahramonlarimiz qatori Temur va Temuriylar nomi qoralangan edi. Ammo Mo'minov Temur shaxsini o'rganish tashabbusi bilan chiqishi uning jasorat va vatanparvarlik fazilatlarining yorqin ifodasi bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida davlatchiligidan yuksalishida alohida o'rin tutadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqlaridan birida shunday degan edi.

Amir Temurning asosiy tarixiy xizmati shundan iboratki, aynan uning hukmronligi davrida Yevropa va Osiyo qit'alari ilk bor o'zlarining bir geosiyosiy maydonda yashayotganligini his etdilar. Bu hodisa bugun juda muhim. Chunki insoniyat shuni tushundiki, biz hammamiz bir -birimizga chambarsas bog'liq, o'zaro aloqadorlikda yashar ekanmiz, demak, endi yangi va xavfsiz dunyo tartiboti o'rnatish uchun imkoniyat paydo bo'ldi.

Amir Temurning siyosiy qudrati va ezgu maqsadli faoliyati tufayli davlat, ijtimoiy va harbiy boshqaruv tartibotlari tubdan yangilanib, mavjudlari takomillashtirildi, mulohaza asosida olib borilgan samarali moliya, pul va soliq islohotlari tufayli jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari, hunarmandchilik ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiyot va savdo, shaharsozlik gurkirab rivojlandi. Uning siyosiy va harbiy faoliyati voqe'anomasi uning muayyan maqsadga yo'naltirilganidan, hokimyat va davlat qurilishi nazariyasi chuqur mulohaza qilinganidan dalolat beradi. Bu esa qudratli hukmdorning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi to'g'risida muayyan xulosa chiqarish imkonini beradi. U davlat ishlab chiqarish kuchlarini, mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida tanazzulga uchragan iqtisodni tiklash uchun barcha choralarни ko'rdi. Yangi-yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodonlashdi. Sohibi jahon, Sohibi adl nomi bilan ulug'langan Amir Temur ning 660 yilligi dastlab Parijda nishonlandi. Samarcand, Shahrisabz va Toshkent shaharlarida haykallari qad rostladi. 1996-yilda "Temuriylar" davlat muzeyi qad rostladi, Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi. 2017-yil 30-iyunda Prezidentimiz Sh. M.Mirziyoyev nutqida yoshlarga harbiy ta'lim beradigan kursantlar maktabiga "Temurbeklar" deb nom berish taklifini ilgari surdi.

Aynan hozirgi musaffo kunlarimizda ham Sohibqiron tavallud topgan kun 9-aprel munosabati bilan tadbir va adabiy kechalar uyushtirilmoqda. Chunki Amir Temur bizning faxrimiz, g'ururimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur davlat boshqaruvi. Toshkent Akademnashr 2017.
2. Amir Temur jahon tarixida. Sharq nashriyoti aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati Toshkent 2001.
3. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. Xorazm nashriyoti 1996.